



**JAHON MAMLAKATLARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
TENDENSIYALARI VA O'ZIGA XOSLIKLARI.**

Tursunaliyeva Shohista Abdullo qizi

Namangan davlat universiteti

1-bosqich BX-BU-24 guruh talabasi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jahon miqyosidagi yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonining asosiy tendensiyalari va turli davlatlar tajribasidagi o'ziga xos jihatlar tahlil qilinib, mazkur maqolada global ekologik muammolarga qarshi kurashda yashil iqtisodiyotning dolzarbligi yoritilib, rivojlanish strategiyalari, ekologik barqarorlik va innovatsion yechimlar berilgan.*

Kalit so'zlar. *Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik siyosat, qayta tiklanuvchi energiya, xalqaro tajriba, innovatsion texnologiyalar.*

Kirish

Global iqlim o'zgarishi, ekologik muammolar va tabiiy resurslar tanqisligining ortib borayotgani so'nggi yillarda barqaror rivojlanish tamoyillarini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Bu sharoitda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi jahon miqyosida dolzarb mavzuga aylangan bo'lib, iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishni, balki yangi ish o'rinlari yaratish, energiya samaradorligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishni ham taqozo etadi.

Jahon mamlakatlarida yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha quyidagi asosiy tendensiyalar kuzatilmoqda:

Yevropa Ittifoqi: Atmosfera haroratining ko'tarilishi, muzliklarning erishi va ekstremal ob-havo hodisalarining ko'payishi insoniyatni tezkor chora-tadbirlar ko'rishga majbur qilmoqda. Yevropa Ittifoqi bu muammoga yechim sifatida 2019-yilda "Yashil kelishuv" strategiyasini qabul qildi. Ushbu tashabbusning asosiy maqsadi -2050-yilga kelib iqlim neytralligiga erishish, ya'ni atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini nol darajaga yetkazishdir.

Yashil kelishuv amalga oshirilishidan oldin va keyin YaIMga ta'siri
(% ko'rsatkichlarda)

Sektor	2018-yil (oldin)	2023-yil(keyin)	O'sish(%)
Qayta tiklanadigan energiya	3.2	7.5	+4.3
Ekologik qishloq xo'jaligi	5.8	8.9	+3.1
Transport sektori	4.0	6.2	+2.2
Atrof-muhitni muhofaza qilish	2.1	4.8	+2.7



AQSH: “Clean Energy Plan” – Toza energiya tashabbusi Amerikada 600 dan ziyod ko'mir zavodlariga taalluqli. Bu inshootlar mamlakat havosini ko'p bulg'ayotgan manbadir. Bu strategiyaga ko'ra 2030-yilga qadar havoni ifloslayotgan gazlar 30 foiga qisqarishi kerak bo'ladi. AQSH Tabiatini asrash agentligi rasmiysi Jina Makarti: “Oilalarimiz salomatligini va farzandlar kelajagi uchun tabiat himoyasiga o'tlanishimiz farz”, -deydi.

Parij kelishuvi (2015): 2015-yil 30-noyabrdan 12-dekabrgacha Fransiyaning Parij shahrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha 2015-yigi konferensiya, COP 21 yoki CMP 11 bo'lib o'tdi. Konferensiyada iqlim o'zgarishi oqibatlarini bartaraf etish va atmosfera havosining ifloslanishini kamaytirish bo'yicha nuzokaralar olib borildi, shartnoma XXI asrning ikkinchi yarmida issiqxona gazlari emissiyasini nolga tenglashtirishni talab qiladi.

Ushbu taklif qilingan majburiyatlar global isishni 2100-yilga kelib $2,7^{\circ}\text{C}$ ga cheklashi taxmin qilingan. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi 1990-yilga nisbatan 2030-yilga kelib emissiyalarni 40 % ga qisqartirish majburiyatini taklif qildi. Bitim 2023-yildan boshlab har besh yilda bir marta milliy maqsadlarni „yangilash va yaxshilash“ uchun qayta ko'rib chiqiladigan „global birja“ni tatqid etdi.

Norvegiya mamlakatida esa ekologik soliq tizimii joriy etilgan.

Norvegiyada har bir plastik idish uchun xaridor 0,3 dollar atrofida soliq to'laydi. Ishlatilgan idish maxsus avtomatga tashlansa soliq xarajati (0,3 dollar) xaridorga qaytariladi. Norveg texnologiyasi bir plastik idishni kamida 50 marta ishlatish imkonini beradi. Taqqoslash uchun: AQShda «hayotga qaytarilayotgan» plastik idishlar 30 foiz, Buyuk Britaniyada 20 foizdan ham oshmaydi. Vikinglar yurtida «xaridor solig'i»dan tashqari, plastik ishlab chiqaruvchilar uchun ham ekologik soliq bor. Tadbirkor bu soliqni to'lamasligi ham mumkin — yangi plastik o'rniga eskisini ishlatishga rozi bo'lsa bas.

Jahon mamlakatlarida yashil iqtisodiyotga o'tish global darajada ekologik tahdidlar fonida taboro dozarb tus olmoqda. Yuqorida ham bu tahdidlarni bartaraf etish maqsadida turli chora-tadbirlarni qo'llayotgan jahon mamlakatlarining tajribalarini ko'rib tahlil qildik, xususan, Parij kelishuvi (2015) ushbu yo'nalishdagi xalqaro huquqiy asoslarga barpo etilgan bo'lib, ko'plab mamlakatlar tomonidan iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda muhim harakatlar bosqichini belgilab berdi. Norvegiyaning ekologik soliq tizimi resurslardan samarali foydalanish va ifloslantiruvchi faoliyatni cheklashda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Yevropa Ittifoqining “Yashil kelishuv” dasturi sa uglerod naytralliginiga taklif etib, texnologik va institutsional yondashuvlar orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishga zamin yaratmoqda. AQSHning “Clean Energy Plan” loyihasi esa iqtisodiy o'sish va yashil energiyani uyg'unlashtirishga intilishning yorqin namunasi bo'lib, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi manbalar va zamonaviy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan.

Umuman olganda, har bir davlat yashil iqtisodiyotga o'tishda o'zining siyosiy, iqtisodiy va texnologik imkoniyatlaridan kelib chiqib harakat qilmoqda va ushbu jahon



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



mamlakatlari tajribalari shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik, balki iqtisodiy barqarorlikni ham ta'minovchi asosiy imillardan biridir.

Shunday bo'la ham, ishlab chiqarish kabi yoki umuman qilib olganda barcha sohalarga yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash masalasi bugungi kundagi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Fizrimizcha, ular quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

1. Qishloq xo'jaligida – agrosanoatda kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlar o'rniga organik texnologiyalarni joriy etish, suvni tejaydigan sug'orish tizimlariga o'tish – bu sohaning barqarorligiga xizmat qiladi.

2. Transport tizimi – yoqilg'i iste'molini kamaytirish, elektromobillarni rag'batlantirish va ommaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish, velesiped yo'lakchalarini rivojlantirish ekologik xavflarni keskin kamaytiradi.

3. Sanoat va ishlab chiqarish – chiqindisiz (nol chiqindi) texnologiyalarga o'tish, energiyani tejaydigan qurilmalar va korxonalarni modernizatsiya qilish.

4. Qurilish sohasi – “yashil bino” standartlarini joriy etish, issiqlikni tejoyvchi materiallar, quyosh panellari va suvni qayta ishlovchi tizimlar orqali yashil qurilish barpo etish dolzarb.

5. Qishloq xo'jaligi – Ko'plab mamlakatlarda hozirgi kunda suv tanqisligi va yerlarning sho'rlanishi ekologik muammolar qatoriga kirmoqda. Shu boisdan qishloq xo'jaligida ham tomchilatib sug'orish, agroekologik yondashuvlar va barqaror dehqonchilik usullarini joriy etish zarur.

6. Energetika – Shamol energiyasidan keng foydalanish bu nafaqat barqaror energiya manbaini beradi, balki uzoq muddatda arzon va toza energiyani ta'minlaydi.

7. Turizm va ekologik rekreatsiya – ekologik turizm (eco-tourism) orqali tabiiy resurslardan foydali va barqaror foydalanish imkonini yaratadi. Bu sohaga yashil standartlar joriy etilishi ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2025-yil, yanvar www.e-itt.uz 1-son yanvar, 2025 jurnal.
<https://slib.uz>

Amerika ovozi <http://amerikaovozi.com>

Yadroviy energetika asoslari.-T.: “Fan va texnologiyalar”,2019, 140 bet. Toshkent-2019
Y.D.Xodjayev, SH.A.Kasimov, K.A.Toxtaxunov.

Birlashgan millatlar tashkilotining iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij02015 konferensiyasi.
<http://uz.m.wikipedia.org>

<http://www.xabar.uz/uz/xorij/norvegiya-plastik-chiqindilar-soliq-tzimi>.